14. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish. — Toshkent, 2017.
15. Xodjabaev A.R. Kasbiy ta’lim metodikasi. — Toshkent, 2019.

ИССЛЕДОВАНИЕ КОЛЬМАТАЦИИ ФИЛЬТРОВ И ВОССТАНОВЛЕНИЕ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ СКВАЖИН ИМПУЛЬСНЫМИ МЕТОДАМИ ПРИ ПОДЗЕМНОМ ВЫЩЕЛАЧИВАНИИ УРАНА

Мехмонов Максуд Раббонокул угли
PhD доцент
Навоийский государственный горно-технологический университет, Навои, Узбекистан
m.mexmonov@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены причины снижения производительности технологических скважин при подземном выщелачивании урана, обусловленные механической, химической и биологической кольматацией фильтров и прифильтровой зоны. На основе анализа фильтрационных, геохимических и технологических факторов систематизированы механизмы образования кольматирующих отложений. Предложен подход к инженерному выбору импульсного способа восстановления дебита в зависимости от материала фильтра, глубины интервала и природы загрязнения. Показано, что при рациональном подборе режима воздействия прирост дебита может составлять 1,8–2,3 раза при устойчивости эффекта до 6–8 месяцев. Наиболее универсальным для пластиковых фильтров является электровзрывной метод, тогда как для интенсивно закольматированных интервалов с металлическими фильтрами более эффективны заряды малой мощности и газодетонационные схемы. Полученные обобщения могут использоваться при разработке регламентов регенерации технологических скважин на урановых месторождениях Узбекистана.

Ключевые слова: подземное выщелачивание урана (ПВ), кольматация фильтра, прифильтровая зона, импульсное воздействие, электровзрыв, пневмоимпульс, газодетонация, дебит скважины

INVESTIGATION OF FILTER CLOGGING AND RESTORATION OF TECHNOLOGICAL WELL PRODUCTIVITY USING PULSE STIMULATION METHODS IN URANIUM IN-SITU LEACHING (ISL)

Maksud Rabbonokul ugli Mekhmonov
PhD, Associate Professor

Navoi State University of Mining and Technologies, Navoi, Uzbekistan
m.mexmonov@mail.ru

ABSTRACT

The article examines the causes of productivity decline in technological wells during uranium in-situ leaching, associated with mechanical, chemical, and biological clogging of well filters and the near-filter zone. Based on the analysis of filtration, geochemical, and technological factors, the mechanisms of clogging deposit formation are systematized. An approach to the engineering selection of impulse-based methods for restoring well productivity is proposed, depending on filter material, interval depth, and the nature of contamination. It is shown that, with a rational selection of stimulation parameters, the increase in well productivity can reach 1.8–2.3 times, with the effect remaining stable for up to 6–8 months. The electro-explosive method is found to be the most universal for plastic filters, whereas low-power charges and gas-detonation schemes are more effective for heavily clogged intervals with metal filters. The obtained generalizations can be applied in the development of regulations for the regeneration of technological wells at uranium deposits in Uzbekistan**.**

Keywords: uranium in-situ leaching (ISL), filter clogging, near-filter zone, impulse stimulation, micro-explosive treatment, electro-explosive method, pneumatic impulse, gas detonation, well productivity

1. Введение

Для технологических скважин подземного выщелачивания урана устойчивость гидродинамической связи между фильтром и продуктивным интервалом определяет не только дебит и приемистость, но и равномерность фронта выщелачивания, расход реагента и итоговый коэффициент извлечения урана [1-3]. В процессе эксплуатации фильтровая зона подвергается прогрессирующей колматации, обусловленной накоплением тонкодисперсных частиц, выпадением карбонатных и железистых осадков, а также развитием биогенных образований. Это приводит к резкому увеличению фильтрационного сопротивления и снижению эффективности технологической системы.

Практика эксплуатации скважин подземного выщелачивания показывает, что в рыхлых и слабосцементированных песчаных коллекторах Центрального Кызылкума снижение дебита может наблюдаться уже в первые месяцы работы. Основными причинами являются образование глинистой корки, осаждение малорастворимых соединений кальция и железа, а также локальное развития биопленок [4].

2. Материалы и методы

Методическая база исследования включает комплексный анализ факторов, определяющих процессы кольматации фильтров и прифильтровой зоны технологических скважин при подземном выщелачивании урана.

В работе использованы следующие подходы:

а) анализ причин механической, химической и биологической кольматации;

б) применение уравнений фильтрации для оценки изменения гидродинамических параметров;

в) использование кинетических зависимостей снижения проницаемости во времени;

г) сравнительный анализ параметров импульсных методов восстановления дебита;

д) обобщение результатов натурных испытаний на урановых месторождениях Узбекистана.

При интерпретации результатов использованы положения гидромеханики пористых сред, гидрогеохимии процессов подземного выщелачивания и данные инженерных исследований [1, 2, 16, 17].

2.1. Модель фильтрации (уравнение Дарси)

Фильтрационные процессы в прифильтровой зоне описываются законом Дарси:

$$Q = \frac{k \cdot A \cdot \Delta P}{\mu \cdot L}, \quad (1)$$

где Q – расход фильтрата, м^3/с; k – коэффициент проницаемости породы, м^2; A – площадь фильтра, м^2; ΔP – перепад давления, Па; μ – динамическая вязкость раствора, Па·с; L – длина фильтрационного пути, м.

При кольматации коэффициент фильтрации k снижается на несколько порядков. Например, при образовании глинистой корки:

$$k = \frac{k_0}{10^3 \div 10^4}, \quad (2)$$

Если исходный коэффициент фильтрации пласта $k_0=10^{-11}$ м^2, то: закольматированной зоне $k=10^{-14} \div 10^{-15}$ м^2 это приводит к резкому падению Q, т.е. производительности скважины.

$$Q(t) = Q_0 \cdot e^{-\alpha t}, \quad (3)$$

На рисунке 1 представлены зависимости изменения дебита скважины во времени при различных значениях коэффициента кольматации α.

С учетом экспоненциального снижения проницаемости во времени (уравнение (3)) и закона Дарси (уравнение (1)) получена зависимость изменения дебита:

$$Q(t) = \frac{k_0 \cdot A \cdot \Delta P}{\mu \cdot L} \cdot e^{-\alpha t}, \quad (4)$$

где k_0 – начальная проницаемость пласта, м^2.




Рис. 1. Снижение дебита технологической скважины во времени при различных скоростях кольматации (при постоянных A, ΔP, μ и L)

Данная зависимость показывает, что дебит скважины уменьшается по экспоненциальному закону вследствие прогрессирующей кольматации прифильтровой зоны.

2.2. Кинетическая модель кольматации

Из уравнения (1) следует, что снижение коэффициента проницаемости k в кольматированной зоне непосредственно приводит к уменьшению расхода через фильтр при прочих равных условиях.

Для описания постепенного ухудшения фильтрационных свойств применена экспоненциальная модель изменения проницаемости:

$$k(t) = k_0 \cdot e^{-\alpha t}, \qquad (5)$$

где k_0 – начальная проницаемость пласта, м^2; α – коэффициент кольматации, сут$^{-1}$ t – время эксплуатации, сут.

Такая форма записи удобна для количественного сопоставления скоростей деградации фильтрационных свойств при различных режимах эксплуатации и химическом составе рабочих растворов [5].

При α = 0,1 сут $^{-1}$ и t = 30 суток:

$$k(30)=k_0 \cdot e^{-3} \approx 0{,}05 \cdot k_0, \qquad (6)$$

что свидетельствует о снижении проницаемости более чем в 20 раз по сравнению с исходным состоянием.

На рисунке 2 представлена зависимость изменения коэффициента проницаемости во времени.




Рис.2. Снижение коэффициента проницаемости прифильтровой зоны во времени в условиях кольматации

Из графика (рис. 2) видно, что наиболее интенсивное снижение проницаемости наблюдается в начальный период эксплуатации, что соответствует стадии активного формирования кольматирующих отложений.

По мере увеличения времени темп снижения проницаемости уменьшается, что связано с частичной стабилизацией структуры порового пространства и ограничением дальнейшего накопления загрязняющих компонентов.

Полученная зависимость хорошо согласуется с экспериментальными данными по эксплуатации скважин подземного выщелачивания в условиях рыхлых песчаных коллекторов.

2.3. Химические процессы кольматации

Для химической кольматации характерно образование малорастворимых соединений в поровом пространстве прифильтровой зоны. В качестве типовых реакций осадкообразования можно выделить:

$$Ca^{2+} + CO_3^{2-} \rightarrow CaCO_3 \downarrow, \quad (5)$$

$$4Fe^{2+} + O_2 + 6H_2O \rightarrow 4Fe(OH)_3 \downarrow, \quad (6)$$

Данные процессы приводят к цементации пор, снижению эффективной проницаемости и увеличению гидравлического сопротивления фильтрационной зоны.

3. Результаты и обсуждение

При сравнении методов восстановления использованы следующие критерии: радиус эффективного воздействия, совместимость с типом фильтра, возможность многократного применения, производственная безопасность и длительность сохранения эффекта.

На рисунках 3 и 4 представлены зависимости изменения дебита скважины и коэффициента проницаемости во времени при прогрессирующей кольматации.




Рис. 3. Снижение дебита скважины при прогрессирующей кольматации




Рис. 4. Снижение коэффициента проницаемости прифильтровой зоны во времени

Анализ представленных зависимостей показывает, что снижение дебита и проницаемости носит экспоненциальный характер, что согласуется с принятыми математическими моделями (уравнения (3)–(4)).

На начальном этапе эксплуатации наблюдается наиболее интенсивное снижение параметров, обусловленное активным формированием кольматирующих отложений. В дальнейшем процесс замедляется, что связано с частичной стабилизацией структуры порового пространства.

Проведенный анализ показал, что механическая кольматация, как правило, инициируется несоответствием гранулометрического состава коллектора параметрам фильтра, а также недостаточной очисткой скважины после бурения.

Наиболее характерными являются: поступление шлама; формирование глинистой корки; миграция мелкодисперсных частиц; уплотнение порового пространства [4–8].

В этом случае снижение проницаемости происходит интенсивно и сопровождается увеличением остаточного гидравлического сопротивления.

Химическая кольматация формируется при нарушении равновесия в системе «пластовая вода – выщелачивающий раствор – минералы коллектора». Осаждение карбонатов кальция и магния, гидроксидов железа, а также сульфидных и силикатных соединений приводит к цементации пор и снижению фильтрационной способности [8].

Биологическая кольматация усиливает указанные процессы за счет образования биопленок и биогенных осадков, особенно при наличии железобактерий и аэрации среды [9].

Для оценки эффективности различных технологий восстановления проницаемости проведено их сопоставление по ключевым инженерным параметрам (табл. 1).

Таблица 1

Метод	Источник энергии	Радиус воздействия, м	Совместимость с фильтром	Типичный эффект

Метод	Источник энергии	Радиус воздействия, м	Совместимость с фильтром	Типичный эффект
Взрыв ВВ	заряд малой мощности	до 0,8	металл	максимальное разрушение плотных отложений
Электровзрыв	разряд в водной среде	0,2–0,4	ПЭ, ПВХ, металл	гибкое регулируемое воздействие
Пневмовзрыв	сжатый воздух	0,3–0,6	ПЭ, ПВХ, металл	гидроудар без ВВ
Газовая детонация	ацетилено-воздушная смесь	до 0,5	ПЭ, ПВХ, металл	мягкая ударная волна

Сравнительный анализ (рис. 5) показывает, что максимальный радиус воздействия характерен для взрыва малых зарядов ВВ. Однако данный метод предъявляет повышенные требования к прочности фильтра и промышленной безопасности [19].




Рис. 5. Сравнение импульсных методов восстановления по радиусу эффективного воздействия

Электровзрывной метод уступает по радиусу воздействия, но обладает высокой управляемостью и может

эффективно применяться в скважинах с пластиковыми фильтрами [13–16]. Пневмоимпульсные и газодетонационные методы занимают промежуточное положение, обеспечивая баланс между эффективностью и безопасностью воздействия [15].



Рис. 6. Последовательность диагностики и восстановления фильтровой зоны технологической скважины

На основании анализа процессов кольматации и сравнительной оценки эффективности импульсных методов предложена последовательность инженерных действий по восстановлению проницаемости прифильтровой зоны.

Алгоритм включает этапы диагностики, выбора метода воздействия, проведения импульсной обработки, удаления кольматанта и контроля гидродинамических параметров.

Такой подход позволяет повысить эффективность регенерации скважин и обеспечить устойчивость достигнутого эффекта во времени.

С инженерной точки зрения выбор метода не должен основываться исключительно на максимальной энергии импульса.

Ключевыми факторами являются: тип фильтра (металл / пластик); степень кольматации; глубина воздействия; допустимый уровень динамических нагрузок.

При преобладании рыхлых механических и биогенных отложений рационально применение электровзрывных и пневмоимпульсных методов.
Для плотных химических осадков целесообразно использование комбинированных технологий (импульс + кислотная обработка) [9,10].

По обобщенным данным натурных испытаний наиболее высокий абсолютный радиус воздействия характерен для взрыва малых зарядов ВВ. Однако именно этот метод предъявляет наиболее жесткие требования к прочности фильтра и к промышленной безопасности [19]. Электровзрывной метод уступает по радиусу действия, но выигрывает по управляемости импульса и по возможности работы в скважинах с пластиковыми фильтрами [13–16]. Пневмовзрыв и газодетонационные схемы занимают промежуточное положение, сочетая достаточную эффективность с приемлемым риском повреждения фильтра [15].

С инженерной точки зрения выбор метода не должен основываться только на максимальной энергии импульса. Для слабоцементированных песков и пластиковых фильтров решающим становится отношение между необходимой глубиной декольматации и допустимым уровнем динамического воздействия на конструкцию скважины. При преобладании рыхлых механических и биогенных отложений рационально использовать электровзрывные и пневмоимпульсные схемы. При наличии более плотных химически стойких осадков может потребоваться комбинирование импульсной обработки с кислотной или реагентной стадией [9,10].

Полученные результаты подтверждают, что устойчивый эффект регенерации определяется не только амплитудой первой ударной волны, но и полнотой удаления разрушенного кольматанта из зоны фильтра. Поэтому после импульсного воздействия обязательны промывка, откачка и контроль восстановления гидродинамических показателей. Для эксплуатационной практики ПВ это особенно важно, поскольку кратковременный прирост дебита без удаления продуктов разрушения может быстро смениться вторичным засорением.

На основе анализа процессов кольматации и результатов моделирования и экспериментальных исследований сформулированы следующие основные выводы:

– Установлено, что снижение производительности технологических скважин обусловлено совмещенным действием механической, химической и биологической кольматации фильтра и прифильтровой зоны.

– Для описания деградации фильтрационных свойств целесообразно использовать сочетание уравнения Дарси и

экспоненциальной зависимости изменения проницаемости во времени.

– Наибольший радиус эффективного воздействия обеспечивает взрыв ВВ, однако его применение ограничено материалом фильтра и требованиями безопасности.

– Наиболее универсальным способом регенерации ПВ-скважин с пластиковыми фильтрами является электровзрывной метод, тогда как пневмовзрыв и газовая детонация эффективны как малоинерционные и технологически гибкие решения.

– Для повышения надежности результата импульсную обработку следует рассматривать как элемент комплексного цикла: диагностика – выбор метода – воздействие – удаление кольматанта – контроль дебита**.**

Библиографический список:

1. Арутюнян А.С., Трофимов А.В. Подземное выщелачивание урана: основы теории и практики. – М.: Недра, 2019. – 312 с.

2. Дуллен Ф. Пористые среды: транспортные свойства. – М.: Мир, 1992. – 560 с.

3. Кадыров К.М., Махкамов Б.А. Технологические основы подземного выщелачивания урана. – Ташкент: Фан, 2019. – 182 с.

4. Иванов П.А. Проблемы кольматации фильтров при СПВ // Гидрогеология и инженерная геология. – 2018. – № 2. – С. 45–52.

5. Смирнов В.В., Карташев Ю.М. Технологии восстановления проницаемости фильтров // Разработка подземных месторождений. – 2016. – № 4. – С. 88–94.

6. Назаров Д.Х., Мустафаев Ш.Х. Особенности взаимодействия фильтра и прифильтровой зоны // Вестник горной науки. – 2020. – № 3. – С. 59–67.

7. Байжанов А.С. Механическая кольматация и методы её устранения // Геотехнологии. – 2019. – № 1. – С. 72–77.

8. Артыков Ж.Н. Химическая кольматация при выщелачивании урана // Технология и техника добычи полезных ископаемых. – 2021. – № 2. – С. 33–39.

9. Горшков А.И. Микробиологические процессы в геотехнологических системах. – Новосибирск: СО РАН, 2015. – 248 с.

10. МАГАТЭ. Manual of Acid In Situ Leach Uranium Mining Technology. – Vienna: IAEA, 2001. – 175 p.

11. Кучеренко В.В., Казаков Н.Г. Импульсные методы интенсификации ПВ-скважин // Вестник гидрогеологии. – 2021. – № 3. – С. 45–52.

12. Tikhonov A., Rudenko S. Shock-wave impact on uranium-bearing aquifers // Journal of Applied Geophysics. – 2022. – Vol. 197. – Article 104579.

13. Egorov S.N., Kravchenko M.Y. Кавитационные эффекты при электровзрывной очистке скважин // Вестник горной науки. – 2022. – № 2. – С. 91–99.
14. Отчёт ОАО «Навоийский горно-металлургический комбинат». Результаты натурных испытаний по восстановлению производительности ПВ-скважин методом электровзрывного импульса. – ЦНИЛ, 2022. – 18 с.
15. Третьяков В.А. Пневмоимпульсные методы очистки фильтровых скважин. – М.: Недра, 2012. – 128 с.
16. Отчёт ЦНИЛ НГМК. Испытания пневмовзрывных установок на месторождении Майлы. – Навои, 2022.
17. Отчёт ОАО «Навоийский горно-металлургический комбинат». Испытания газодетонационного метода восстановления скважин. – ЦНИЛ, 2022. – 17 с.
18. Орленко Л.П. Физика взрыва и удара. – М.: Физматлит, 2017. – 408 с.
19. Мамилов В.А. Петров Р.П., Водолазов Л.И. и др. Добычи урана методом подземного выщелачивания. - Москва: Атомиздат, 1980. – с. 99-102.
20. Ivanov A.A. Acid leaching techniques for carbonate removal in ISL uranium mining // Hydrometallurgy. – 2020. – Vol. 195. – P. 105–112.
21. Шукуров А.Н. Парокислотные технологии в ПВ // Материалы конференции «Уран–2022». – Ташкент, 2022. – С. 119–123.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA SIMULYATSION DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Eshqobilov Shaxboz Xayrulla o'g'li
Xalqaro innovatsion universiteti, o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA.

Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida simulyatsion didaktik vositalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari kompleks tahlil qilinib, simulyatsiya texnologiyalarining pedagogik mohiyati, o'quv jarayonidagi o'rni, funksiyalari hamda didaktik imkoniyatlari chuqur yoritiladi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim paradigmasi - kompetensiyaga yo'naltirilgan, talaba markazli va interaktiv yondashuvlar nuqtai nazaridan simulyatsion vositalarning ahamiyati asoslab berilib, ularning o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish orqali tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, simulyatsiya asosidagi o'qitish modeli doirasida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, o'quv jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, simulyatsiya, didaktika, interaktiv texnologiyalar, virtual muhit, kompetensiya.

ABSTRACT.

This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations for the use of simulation-based didactic tools in a digital learning environment. In particular, it explores the pedagogical essence of simulation technologies, their role in the educational process, as well as their functions and didactic potential. From the perspective of modern educational paradigms-competency-based, student-centered, and interactive approaches-the significance of simulation tools is substantiated. The study also examines their role in activating learners' cognitive activity and in developing critical and creative thinking skills through the modeling of problem-based situations. Furthermore, within the framework of a simulation-based teaching model, the possibilities of integrating theoretical knowledge with practical activities, as well as individualizing and differentiating the learning process, are highlighted.

Keywords: digital education, simulation, didactics, interactive technologies, virtual environment, competence.

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimi tubdan transformatsiyaga uchramoqda va bu jarayon global raqamlashtirish tendensiyalari

bilan chambarchas bog‘liq. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, xususan, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), virtual va kengaytirilgan reallik tizimlari ta’lim mazmuni, shakli va metodlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Natijada, an’anaviy o‘qitish modeli asta-sekin interaktiv, moslashuvchan va talaba markazli ta’lim modeliga o‘rin bo‘shatmoqda. Bunday sharoitda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish va talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy ta’lim paradigmasi bilimlarni oddiy uzatishdan ko‘ra, ularni faol o‘zlashtirish, qo‘llash va yaratishga yo‘naltirilgan. Shu sababli o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, simulyatsion didaktik vositalar ushbu ehtiyojni qondiruvchi samarali vositalardan biri sifatida ajralib turadi. Ular yordamida o‘quvchilar real hayotda uchraydigan murakkab jarayonlarni modellashtirish orqali chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Simulyatsiya - bu real jarayon, hodisa yoki tizimning sun’iy modelini yaratish orqali o‘rganish metodidir. Ta’lim jarayonida simulyatsiya texnologiyalari murakkab, xavfli yoki qimmat tajribalarni xavfsiz va nazorat qilinadigan muhitda amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning tajriba orttirish imkoniyatlarini kengaytiradi, xatolardan qo‘rqmasdan o‘rganish muhitini yaratadi hamda bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Simulyatsion didaktik vositalar nafaqat bilim berish, balki talabalarda analitik tafakkur, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, texnik, tibbiyot, iqtisodiyot va muhandislik sohalarida simulyatsiya asosida o‘qitish yuqori samaradorlikni ko‘rsatmoqda. Shu bois, simulyatsion vositalarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Simulyatsion muhit namunasi (talabalar faoliyati kontekstida)









Simulyatsion muhit - bu o‘quvchilarga real hayotga yaqinlashtirilgan sharoitda bilim va ko‘nikmalarni egallash imkonini beruvchi raqamli platformadir. Bunday muhitda talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirgan holda, faol o‘quv subyekti sifatida ishtirok etadilar.

Shuningdek, simulyatsion muhitlarda talabalar jamoaviy ishlashni ham o‘rganadilar. Guruhli simulyatsiyalar orqali ular muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish, rollarga bo‘linish va qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etadilar. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyalarini va ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi.



Virtual Teaching Simulator (VTS)



Yana bir muhim jihat shundaki, simulyatsion muhitlar individual o‘qitish imkoniyatini yaratadi. Har bir talaba o‘z bilim darajasi va o‘rganish tezligiga mos ravishda topshiriqlarni bajarishi mumkin. Bu esa differensial yondashuvni ta’minlab, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy manbalarda simulyatsiya asosida o‘qitish konstruktivizm nazariyasiga tayanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, bilim o‘quvchining faol ishtiroki orqali shakllanadi.


Simulyatsion vositalarning asosiy pedagogik yondashuvlari:

- Konstruktivistik yondashuv
- Faol o‘qitish (Active learning)
- Tajriba asosida o‘rganish (Experiential learning)

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:


- Simulyatsiya o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi
- Murakkab tushunchalarni vizual ravishda tushunishni osonlashtiradi
- O‘quv motivatsiyasini oshiradi

METODOLOGIYA.



1-rasm. Simulyatsiya jarayonining ishlash prinsipi.

Tahlil usullari. Mazkur tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash va olingan ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks yondashuv asosida bir nechta o‘zaro uyg‘un metodlardan foydalanildi. Xususan, statistik tahlil, so‘rovnoma natijalarini qayta ishlash hamda kuzatuv metodlari tadqiqotning asosiy tahlil vositalari sifatida tanlandi. Ushbu metodlarning integratsiyalashuvi tadqiqot natijalarining obyektivligi va ilmiy asoslanganligini oshirishga xizmat qildi.



2-rasm. Simulyatsion o‘qitishni tahlil usullari.

Birinchidan, statistik tahlil usullari, xususan SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) dasturiy vositasi orqali olingan ma’lumotlar qayta ishlanib, miqdoriy tahlil amalga

oshirildi. Statistik tahlil jarayonida tavsifiy statistika (o‘rtacha qiymat, median, dispersiya), shuningdek, inferensial statistika usullari (t-test, ANOVA, korrelyatsiya tahlili) qo‘llanildi. Bu orqali eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, simulyatsion vositalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslandi. Statistik natijalar tadqiqot gipotezalarini tekshirish va umumlashtirish imkonini berdi.

Ikkinchidan, so‘rovnoma (anketa) usuli orqali talabalarning simulyatsion didaktik vositalarga nisbatan munosabati, ularning o‘quv jarayonidagi faolligi, motivatsiyasi va subyektiv baholari o‘rganildi. So‘rovnomalar Likert shkalasi asosida tuzilib, respondentlarning fikrlarini miqdoriy ifodalash imkonini berdi. Olingan natijalar kontent-tahlil va statistik usullar yordamida qayta ishlanib, talabalarning simulyatsiya asosidagi o‘qitish modeliga bo‘lgan qarashlari va uning samaradorligi haqida muhim xulosalar chiqarildi.

Uchinchidan, kuzatuv metodi yordamida talabalar faoliyati bevosita o‘quv jarayonida monitoring qilindi. Bu metod orqali talabalar ishtirokining faolligi, muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonidagi xatti-harakatlari, jamoaviy ishlash ko‘nikmalari va qaror qabul qilish strategiyalari tahlil qilindi. Kuzatuvlar tizimli va maqsadli ravishda olib borilib, oldindan ishlab chiqilgan mezonlar asosida qayd etildi. Ushbu metod sifat tahlilini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, statistik natijalarni chuqurlashtirishga xizmat qildi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida olingan empirik natijalar simulyatsion didaktik vositalardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Eksperimental (simulyatsiya qo‘llangan) va nazorat (an’anaviy o‘qitish asosidagi) guruhlar o‘rtasidagi taqqoslash natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi. Olingan natijalar asosida vizual shaklda ifodalash ularning aniqligi, tushunarliligi va ta’sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli ta’lim muhitiga oid tadqiqotlarda grafik, diagramma va infografikalar orqali ma’lumotlarni taqdim etish ilmiy xulosalarning yanada ravshan va ishonchli ko‘rinishda yetkazilishiga xizmat qiladi. Vizual ifodalash nafaqat natijalarni taqqoslashni osonlashtiradi, balki ularni tahlil qilish jarayonini ham soddalashtiradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari raqamli ta’lim muhitida simulyatsion didaktik vositalardan foydalanishning yuqori pedagogik samaradorligini tasdiqladi. Olingan ma’lumotlar nafaqat akademik natijalar yaxshilanishini, balki talabalarning kognitiv va motivatsion rivojlanishida ham sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi. Ushbu natijalarni zamonaviy pedagogik nazariyalar va amaliy yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilish muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Avvalo, simulyatsion didaktik vositalar o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini yaratadi. Har bir talaba o‘z bilim darajasi, o‘rganish tezligi va qiziqishlariga mos ravishda virtual muhitda ishlashi mumkin. Bu esa differensial yondashuvni ta’minlab, kuchli va sust o‘zlashtiruvchi talabalar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, adaptiv simulyatsion tizimlar yordamida o‘quv materiallari individual ehtiyojlarga moslashtiriladi.

Ikkinchidan, simulyatsiya asosidagi o‘qitish talabalarga xatolardan xavfsiz o‘rganish imkonini beradi. Real hayotda xatolik katta xavf yoki moddiy zarar keltirishi mumkin bo‘lgan sohalarda (masalan, tibbiyot, texnika, muhandislik) virtual muhitda takroriy tajribalar o‘tkazish orqali o‘rganish samaradorligi oshadi. Talabalar xatolarni tahlil qilish, ularning sabablarini aniqlash va to‘g‘ri yechimlarni ishlab chiqish orqali chuqurroq bilimga ega bo‘ladilar.

Uchinchidan, simulyatsion vositalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. An’anaviy ta’limda ko‘pincha nazariya va amaliyot o‘rtasida uzilish kuzatiladi, simulyatsiya esa bu tafovutni bartaraf etadi. Talabalar o‘rgangan nazariy tushunchalarni bevosita virtual tajribalar orqali sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ladilar, bu esa bilimlarning mustahkam va barqaror o‘zlashtirilishiga olib keladi.

Simulyatsion didaktik vositalarning ustun jihatlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, quyidagi rasmda keltirilgan ma’lumotlarga asoslanish mumkin**.**



3-rasm. Simulyatsion didaktik vositalari.



4-rasm. Simulyatsion texnologiyalarining cheklovlari va muammolari.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari raqamli ta'lim muhitida simulyatsion didaktik vositalardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, simulyatsiya asosidagi o‘qitish modeli an’anaviy ta’lim yondashuvlariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, o‘quv jarayonining sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Simulyatsion vositalar nazariy bilimlarni vizual, interaktiv va amaliy yo‘naltirilgan shaklda yetkazish imkonini beradi. Bu esa talabalarning murakkab tushunchalarni chuqurroq anglashiga, bilimlarni barqaror o‘zlashtirishiga hamda ularni real yoki modellashtirilgan amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishiga sharoit yaratadi**.**

Shuningdek, simulyatsion didaktik vositalar talabalarning kasbiy va umumiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, muammoli vaziyatlarni hal qilish, tanqidiy va analitik fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash kabi ko‘nikmalar simulyatsion muhitda samarali shakllanadi. Bunday vositalar asosida interaktivlik, moslashuvchanlik va individuallashtirish tamoyillariga tayangan innovatsion o‘qitish muhiti vujudga keladi. Natijada har bir talabaning individual imkoniyatlariga mos rivojlanish sharoiti yaratiladi, o‘quv jarayoni yanada qiziqarli, samarali va natijaviy tus oladi hamda bitiruvchilarning mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gredler, M. E. (2019). Learning and Instruction: Theory into Practice. New York: Routledge.
2. Mayer, R. E. (2020). Multimedia Learning (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
3. Kolb, D. A. (2015). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. New Jersey: Pearson Education.
4. UNESCO (2023). Global Education Monitoring Report: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO Publishing.
5. OECD (2022). The Future of Education and Skills: Education 2030 Framework. Paris: OECD Publishing.
6. Eshqobilov, Sh. (2022). *Raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etishning pedagogik asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
7. Karimov, A. A. (2021). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
8. Yo‘ldoshev, J. G‘. (2020). *Ta’limda interaktiv metodlar va ularni qo‘llash*. Toshkent: O‘qituvchi.

BIANCHI I MODELIDA SIMMETRIYA TASNIFI: KILLING VEKTOR MAYDONLARI UCHUN ANIQ KRITERIY

X.F. Sharipov[1], O‘.Halimov[2], G.S. Sulaymonova[1],
[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Elektron pochta: sh_xurshid@yahoo.com

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada diagonal Bianchi I modelining simmetriya xossalari Killing vektor maydonlari yordamida tahlil qilinadi. Bianchi tipidagi fazo-vaqtlar uchun minimal uch o‘lchovli izometriya algebrasi mavjudligi asoslanadi hamda diagonal Bianchi I metrikada qo‘shimcha aylanish simmetriyasi paydo bo‘lishi uchun $a(t) = b(t)$ shartning zarur va yetarli ekani Li hosila orqali isbotlanadi. Natijalar generik, lokal aylana simmetriyali va izotrop holatlar kesimida jadval ko‘rinishida umumlashtiriladi. Tadqiqot Bianchi I modelining simmetriya darajasi masshtab funksiyalari tengliklari bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Bianchi I modeli, Killing vektor maydoni, izometriya algebra, lokal aylana simmetriyasi, izotrop limit.

SYMMETRY CLASSIFICATION IN THE BIANCHI I MODEL: AN EXACT CRITERION FOR KILLING VECTOR FIELDS

ABSTRACT:

The article analyzes symmetry properties of the diagonal Bianchi I model using Killing vector fields. We justify the existence of the minimal three-dimensional isometry algebra for Bianchi space-times. Then, by direct computation of the Lie derivative, we prove that the condition $a(t) = b(t)$ is necessary and sufficient for the appearance of an additional rotation symmetry in the diagonal Bianchi I metric. The obtained results are summarized for the generic, locally rotationally symmetric and isotropic cases. The analysis shows that the degree of symmetry of the Bianchi I model is directly determined by equalities among the scale factors and provides a clear methodological basis for studying analogous symmetry mechanisms in other Bianchi types.

Keywords: Bianchi I model, Killing vector field, isometry algebra, locally rotational symmetry, isotropic limit.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Bianchi tipidagi fazo-vaqtlar umumiy nisbiylik nazariyasida fazoviy bir jinsli, biroq odatda anizotrop kosmologik modellar sinfini tashkil qiladi. Ular uch o‘lchovli Lie gruppaning fazoviy kesimlarda oddiy tranzitiv harakati bilan tavsiflanadi [1, 2]. Shu sababli Bianchi modellar simmetriya va geometriya o‘rtasidagi bog‘lanishni tadqiq etish uchun tabiiy laboratoriya vazifasini bajaradi. Bunday modellarni Killing vektor maydonlari asosida tasniflash Eynshteyn tenglamalarini soddalashtirish, saqlanuvchi kattaliklarni aniqlash va anizotrop kosmologik rejimlarni qiyoslashda muhim ahamiyatga ega [3, 4].

Bianchi I modeli ushbu sinf ichida eng sodda model hisoblanadi. Bu modelda struktura konstantalari nol bo‘ladi, ya’ni fazoviy invariant formalar oddiy koordinata differensiallari bilan mos tushadi. Natijada Killing tenglamalarini invariant bazis va koordinata bazisda parallel ravishda tahlil qilish mumkin. Mazkur qulaylik sababli Bianchi I modeli ko‘plab nazariy va amaliy ishlarda tayanch misol sifatida olinadi [5, 6]. U bir tomondan yassi fazoviy kesimga ega bo‘lgan eng sodda anizotrop model, ikkinchi tomondan esa LRS va izotrop limitlarga o‘tish mexanizmini ochiq ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

So‘nggi yillarda Bianchi I va unga yaqin modellar turli gravitatsiya nazariyalarida faol o‘rganilmoqda. De va hammualliflar LRS Bianchi I modelining $f(Q)$-gravitatsiyadagi izotroplashuv jarayonini tahlil qilganlar [7]. Alam va hammualliflari LRS Bianchi I fazo-vaqtida Killing vektorlar Lie algebrasini $f(Q)$ kontekstida tadqiq qilganlar [8]. Sidaoui va hammualliflari LRS Bianchi I fazo-vaqtini o‘z-o‘ziga o‘xshash simmetriya nuqtayi nazaridan “Rif tree” usuli bilan tasniflaganlar [10]. Gad va hammualliflari LRS fazo-vaqtlarida konformal harakatlar mavjud bo‘lsa, modelning FRW limitga qanday yaqinlashishini ko‘rsatganlar [11]. Qasim va hammualliflarining ishlari esa Bianchi kosmologik modelda konformal harakatlar bilan bog‘liq natijalarni $f(Q,T)$-gravitatsiya doirasida taqdim etgan [12].

Boshqa Bianchi turlari uchun ham zamonaviy natijalar mavjud. Masalan, Ahmad va hammualliflari LRS Bianchi V fazo-vaqtining Killing vektorlar bo‘yicha tasnifini “Rif tree” yondashuvi bilan berganlar [9]. Bu natijalar Killing maydonlari va algoritmik simmetriya tahlilining hozirgi kunda ham dolzarbligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ko‘plab ishlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisoblash natijalari berilsa-da, diagonal Bianchi I metrikada qo‘shimcha Killing maydoni paydo bo‘lishi uchun zarur va yetarli shartning elementar, bosqichma-bosqich isboti kam uchraydi. Mazkur maqolaning maqsadi aynan shu jihatni aniq bayon qilishdir. Maqolada minimal izometriya algebrasining

mavjudligi isbotlanadi; $a(t) = b(t)$ shartining qo‘shimcha aylanish generatori uchun zarur va yetarli ekani ko‘rsatiladi; generik, LRS va izotrop holatlar qiyosiy jadvalda jamlanadi.

Bianchi turidagi bir jinsli fazo-vaqtni sinxron vaqt koordinatasida quyidagicha yozamiz:

$$ds^2 = -dt^2 + \gamma_{ij}(t)\omega^i\omega^j, \qquad i,j = 1,2,3. \tag{1}$$

Bu yerda ω^i invariant 1-formalar bo‘lib, Maurer–Cartan tenglamalarini qanoatlantiradi:

$$d\omega^i = -\frac{1}{2}C^i_{jk}\omega^j \wedge \omega^k. \tag{2}$$

Bu formuladagi C^i_{jk} lar mos Bianchi turining struktura konstantalaridir. Killing vektor maydon ξ ta’rifiga ko‘ra

$$\mathcal{L}_\xi g = 0 \tag{3}$$

shartni qanoatlantiradi. Koordinata ko‘rinishida bu shart

$$\nabla_\mu \xi_\nu + \nabla_\nu \xi_\mu = 0 \tag{4}$$

ga teng kuchlidir. Diagonal Bianchi I modelda $\omega^1 = dx$, $\omega^2 = dy$, $\omega^3 = dz$ bo‘lib, metrika

$$ds^2 = -dt^2 + a^2(t)dx^2 + b^2(t)dy^2 + c^2(t)dz^2 \tag{5}$$

ko‘rinishga ega. Maqolada ikki usul birgalikda qo‘llanadi. Birinchi usul invariant bazis usuli bo‘lib, u minimal Killing maydonlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Ikkinchi usul Li hosilani to‘g‘ridan-to‘g‘ri komponentma-komponent hisoblash bo‘lib, u diagonal Bianchi I modelida qo‘shimcha Killing maydonining zarur va yetarli shartini olishga xizmat qiladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Minimal izometriya algebra.

Teorema 1. (1) ko‘rinishdagi har qanday Bianchi tipidagi fazo-vaqt kamida uchta chiziqli erkli Killing vektor maydoniga ega. Demak, Bianchi tipidagi fazo-vaqtlarning eng kam fazoviy simmetriya darajasi 3 ga teng.

Isbot. Bianchi modeli ta’rifiga ko‘ra, har bir vaqt kesimida Σ_t ustida uch o‘lchovli Lie gruppa oddiy tranzitiv harakat qiladi. Shu gruppaning izometriya generatorlarini X_1, X_2, X_3 bilan belgilaymiz. Ularning dual invariant formalariga nisbatan

$$\omega^i(X_j) = \delta^i_j, \qquad \mathcal{L}_{X_k}\omega^i = 0$$

tengliklar bajariladi. Endi metrikani (1) ko‘rinishda olaylik. Bu yerda $\gamma_{ij}(t)$ faqat vaqtga bog‘liq. Muhim nuqta shuki, X_k lar fazoviy invariant vektor maydonlar bo‘lib, ularning vaqt komponenti nol: $X^0_k = 0$. Shuning uchun $X_k(t) = 0$ va demak

$$\mathcal{L}_{X_k}\gamma_{ij}(t) = 0.$$

Shuningdek,

$$\mathcal{L}_{X_k}(\omega^i\omega^j) = (\mathcal{L}_{X_k}\omega^i)\omega^j + \omega^i(\mathcal{L}_{X_k}\omega^j) = 0.$$

Natijada

$$\mathcal{L}_{X_k}g = \mathcal{L}_{X_k}(-dt^2 + \gamma_{ij}(t)\omega^i\omega^j) = 0.$$

Demak, X_1, X_2, X_3 Killing vektor maydonlardir. Ularning chiziqli erkligi ham darhol kelib chiqadi. Agar $\alpha^1 X_1 + \alpha^2 X_2 + \alpha^3 X_3 = 0$ bo‘lsa, har ikki tomonga ω^m ni qo‘llab $\alpha^m = 0$ ekanini olamiz. Shunday qilib, kamida uchta chiziqli erkli Killing maydon mavjud. Teorema isbotlandi.

Qo‘shimcha Killing maydoni uchun aniq kriteriy.

Teorema 2. (5) metrikada

$$X = -y\,\partial_x + x\,\partial_y \tag{6}$$

vektor maydon Killing vektor maydon bo‘lishi uchun va faqat shunda $a(t) = b(t)$ tenglik bajariladi.

Isbot. Yetarliligini ko‘rsatamiz. (6) ga ko‘ra $X^x = -y$, $X^y = x$, $X^z = 0$, $X^0 = 0$. Li hosilaning komponent formulasi

$$(\mathcal{L}_X g)_{\mu\nu} = X^\lambda\,\partial_\lambda g_{\mu\nu} + g_{\lambda\nu}\,\partial_\mu X^\lambda + g_{\mu\lambda}\,\partial_\nu X^\lambda \tag{7}$$

ko‘rinishga ega. Bianchi I metrikada $g_{xx} = a^2(t)$, $g_{yy} = b^2(t)$, $g_{zz} = c^2(t)$ va barcha koeffitsiyentlar faqat t ga bog‘liq bo‘lgani uchun birinchi had nol bo‘ladi.

(xx) va (yy) komponentlarni tekshiramiz:

$$(\mathcal{L}_X g)_{xx} = 2g_{x\lambda}\,\partial_x X^\lambda = 2a^2(t)\,\partial_x(-y) = 0,$$

chunki $X^x = -y$ funksiyasi x ga bog‘liq emas. Xuddi shunday,

$$(\mathcal{L}_X g)_{yy} = 2g_{y\lambda}\,\partial_y X^\lambda = 2b^2(t)\,\partial_y(x) = 0,$$

chunki $X^y = x$ funksiyasi y ga bog‘liq emas. Muhim komponent (xy) bo‘ladi:

$$(\mathcal{L}_X g)_{xy} = g_{yy}\,\partial_x X^y + g_{xx}\,\partial_y X^x.$$

Bu yerda $\partial_x X^y = \partial_x(x) = 1$ va $\partial_y X^x = \partial_y(-y) = -1$. Demak,

$$(\mathcal{L}_X g)_{xy} = b^2(t) - a^2(t).$$

Shu sababli $a(t) = b(t)$ bo‘lsa, (xy) komponent ham nol bo‘ladi. Qolgan komponentlar ham nolga teng. Demak, $a = b$ bo‘lganda X Killing maydon bo‘ladi.

Endi zarurliligini ko‘rsatamiz. Faraz qilaylik, (6) maydon Killing bo‘lsin. Unda albatta $(\mathcal{L}_X g)_{xy} = 0$ bo‘lishi kerak. Yuqoridagi hisobdan

$$(\mathcal{L}_X g)_{xy} = b^2(t) - a^2(t)$$

kelib chiqqan edi. Shuning uchun $b^2(t) - a^2(t) = 0$. Masshtab funksiyalari musbat deb olingani sababli bundan $a(t) = b(t)$ natija kelib chiqadi.

Zarurlik ham isbotlandi.

Natija 1. Agar (5) metrikada $a(t) = b(t) = c(t)$ bo‘lsa, u holda uchta burish generatori

$$J_1 = -z\,\partial_y + y\,\partial_z, \qquad J_2 = -x\,\partial_z + z\,\partial_x, \qquad J_3 = -y\,\partial_x + x\,\partial_y$$

Killing vektor maydonlar bo‘ladi va fazoviy izometriya algebrasining o‘lchami 6 ga teng.

Isbot. Teorema 2 da bir juft teng yo‘nalish uchun aylanish generatori qanday paydo bo‘lishi aniq ko‘rsatildi. Agar $a = b = c$ bo‘lsa, xuddi shu hisob (yz) va (zx) juftliklar uchun ham o‘rinli bo‘ladi. Shunday qilib, uchta translatsiya $\partial_x, \partial_y, \partial_z$ ga qo‘shimcha ravishda uchta aylanish generatori paydo bo‘ladi. Natijada fazoviy izometriya algebrasining o‘lchami 6 ga teng bo‘ladi.

Jadval 1. Bianchi I modeli uchun simmetriya holatlari

Holat	**Killing maydonlar soni**	**Izoh**
Generik holat: $a(t)$, $b(t)$, $c(t)$ o‘zaro turli	3	Uchta parallel ko‘chirish: $\partial_x, \partial_y, \partial_z$
LRS holati: masalan, $a(t) = b(t) \neq c(t)$	4	Parallel ko‘chirishlarga qo‘shimcha (6) burish generatori paydo bo‘ladi
Izotrop limit: $a(t) = b(t) = c(t)$	6	Uchta translatsiya va uchta burish generatori

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Olingan natijalar diagonal Bianchi I modelida simmetriya darajasining masshtab funksiyalari orasidagi tengliklar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langanini ko‘rsatadi. Xususan, $a = b$ bo‘lishi ikki yo‘nalishning teng kengayish xususiyatiga ega ekanini bildiradi va aynan shu holatda xy-tekislikdagi burish generatori Killing maydonga aylanadi. Bu fakt LRS (locally rotationally symmetric, ya’ni lokal aylana simmetriyali) sinfning geometrik mohiyatini aniq ochib beradi.

Natijalar zamonaviy adabiyotlar bilan hamohangdir. Masalan, De va hammualliflar [7] LRS Bianchi I modelida izotroplashuv jarayonini $f(Q)$-gravitatsiyada ko‘rsatganlar; Alam va hammualliflari [8] esa Killing vektorlar Lie algebrasini kompyuter algebra usullari bilan tahlil qilganlar. Sidaoui va hammualliflarning ishlari [10] simmetriya tahlilining algoritmik jihatdan ham dolzarbligini ko‘rsatadi. Demak, mazkur maqoladagi natijalar nafaqat klassik nazariya, balki so‘nggi yillardagi izlanishlar bilan ham bevosita bog‘liq.

Shu bilan birga, ushbu maqolada faqat diagonal Bianchi I modeli to‘liq tahlil qilindi. Boshqa Bianchi turlarida ham shunga o‘xshash mexanizm ishlaydi, biroq qo‘shimcha Killing maydoni

koordinata aylanishi shaklida emas, balki mos invariant bazisdagi aylanish analogi sifatida paydo bo‘ladi. Masalan, Ahmad va hammualliflarning LRS Bianchi V bo‘yicha natijalari [9] shuni ko‘rsatadiki, minimal Killing algebra va qo‘shimcha simmetriya o‘rtasidagi bog‘lanish “Rif tree” hamda kompyuter algebra usullari yordamida samarali tadqiq qilinadi. Shu sababli Bianchi I modeli keyingi turlar uchun metodik tayanch sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Maqolada diagonal Bianchi I modeli uchun minimal izometriya algebrasining o‘lchami 3 ga teng ekani qat’iy isbotlandi. Bundan tashqari, $a(t) = b(t)$ tenglik qo‘shimcha aylanish simmetriyasi paydo bo‘lishi uchun zarur va yetarli shart ekani to‘liq hisoblash orqali ko‘rsatildi. $a = b = c$ holatda esa fazoviy izometriya algebrasi 6 o‘lchovli bo‘lishi natija sifatida olindi.

Mazkur yondashuv simmetriya tahlilini aniq va o‘quvchi uchun tushunarli shaklda beradi hamda kelgusida boshqa Bianchi turlarini o‘rganish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Jurnal uslubida qaralganda, bunday aniq kriteriylar yangi natijalarni oldingi ishlanmalar bilan qiyoslashni ham yengillashtiradi; masalan, LRS Bianchi I bo‘yicha konformal va o‘z-o‘ziga o‘xshash simmetriya tadqiqotlari bilan bevosita bog‘lanish o‘rnatish mumkin [10–12].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

[1] Ellis, G. F. R., & MacCallum, M. A. H. (1969). A class of homogeneous cosmological models. *Communications in Mathematical Physics, 12*, 108–141.

[2] Ryan, M. P., & Shepley, L. C. (1975). *Homogeneous Relativistic Cosmologies*. Princeton University Press.

[3] Wald, R. M. (1984). *General Relativity*. University of Chicago Press.

[4] Stephani, H., Kramer, D., MacCallum, M., Hoenselaers, C., & Herlt, E. (2003). *Exact Solutions of Einstein’s Field Equations* (2nd ed.). Cambridge University Press.

[5] Jantzen, R. T. (1984). Spatially homogeneous dynamics: A unified picture. In *Cosmology of the Early Universe* (pp. 233–270). World Scientific.

[6] Hawking, S. W., & Ellis, G. F. R. (1973). *The Large Scale Structure of Space-Time*. Cambridge University Press.

[7] De, A., Mandal, S., Beh, J. T., Loo, T.-H., & Sahoo, P. K. (2022). Isotropization of locally rotationally symmetric Bianchi-I universe in f(Q)-gravity. *European Physical Journal C, 82*, Article 72.

[8] Alam, F., Ramzan, M., Khokhar, M. A. R. R., & Ali, S. (2024). A note on Lie algebra of Killing vector fields of locally

rotationally symmetric Bianchi type-I spacetime in f(Q)-gravity. *Scholars Bulletin, 10*(10), 245–253.

[9] Ahmad, S., Khan, J., Ahmad, H., Ali, S., & Sajid, M. (2024). Killing vector fields of locally rotationally symmetric Bianchi type V spacetime. *Scientific Reports, 14*, Article 58560.

[10] Sidaoui, R., Alfedeel, A. H. A., Khan, J., Alsharafi, M., Hassan, E. I., & Aldwoah, K. (2025). Classification of LRS Bianchi-I spacetime in context of f(T) gravity via its self-similar symmetry. *PLoS One, 20*(12), e0334004.

[11] Gad, R. M., & Al-Jamel, A. A. (2025). On LRS space-times admitting conformal motions. *Symmetry, 17*(8), Article 1241.

[12] Qasim, M., Ashraf, A., Ramzan, M., Malik, S., Iqbal, S., & Hussain, F. (2026). Perfect fluid Bianchi cosmological model admitting conformal motions in f(Q,T) gravity. *Nuclear Physics B, 1023*, Article 117293.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ АБСОЛЮТНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОЛУПРОВОДНИКОВОГО ДЕТЕКТОРА.

Н.Р. Юлдашева
Университет «Новый Узбекистан»

Б.Ж. Сайдуллаев
Алфраганус Университи, г. Ташкент
Электронная почта: b.saydullayev@afu.uz

АННОТАЦИЯ

Данная исследовательская работа посвящена определению абсолютной эффективности детектора из чистого германия (HPGe). При этом абсолютную эффективность определяли с использованием элементов ^{57}Co, ^{54}Mn, ^{109}Cd, ^{152}Eu, ^{60}Co и ^{137}Cs. Значения абсолютной эффективности при определенных энергиях определялись по гамма-пикам образца-источника. Энергия абсолютного эффективности получается кривая в широком диапазоне. При расчете также учитывалось эффективное время детектора, погрешности счета и определения интенсивности. Определение абсолютной эффективности детектора дает возможность сделать вывод об эффективности регистрации физических параметров детектора, в том числе гамма-лучей, с течением времени.

Ключевые слова: детектор, HPGe-детектор, абсолютная эффективность, относительная эффективность, калибровка, EHM, OSGI.

DETERMINATION OF THE ABSOLUTE EFFICIENCY OF A SEMICONDUCTOR DETECTOR.

ABSTRACT

This research work is devoted to determining the absolute efficiency of a pure germanium (HPGe) detector. The absolute efficiency was determined using the elements ^{57}Co, ^{54}Mn, ^{109}Cd, ^{152}Eu, ^{60}Co and ^{137}Cs. The absolute efficiency values at certain energies were determined by the gamma peaks of the source sample. The energy of the absolute efficiency is a curve in a wide range. The effective time of the detector, counting errors and intensity determination were also taken into account in the calculation. Determining the absolute efficiency of the detector makes it possible to draw a conclusion about the efficiency of recording the physical parameters of the detector, including gamma rays, over time.

Keywords: detector, HPGe detector, absolute efficiency, relative efficiency, calibration, EHM, OSGI.

Введение. В настоящее время возрастает потребность в использовании различных биообъектов (питьевой воды, растений, продуктов питания и т. д.) в нашей повседневной жизни. При их использовании необходимо знать состав элементов, и его определение является одной из актуальных проблем. Активационный анализ играет в этом важную роль. Необходимость правильного использования детекторов, используемых для определения состава веществ, зависит главным образом от точности измерения и оценки активности радионуклидов. Если эффективность регистрации детектора рассчитана неправильно или уровень точности низкий, то состав проб будет оценен неверно, а это, в свою очередь, может привести к опасным ситуациям [1]. Точность результатов измерений зависит от процесса работы данного детектора, точности величин, используемых при расчете активности. Со временем из-за изменения физических свойств материалов детектора изменяются параметры детектора, в том числе эффективность регистрации гамма-лучей. Поэтому физические параметры детектора, включая гамма-лучи, должны быть точно оценены во времени [2-5].

Актуальность исследования. При точном измерении активности радионуклидов, распадающихся гамма-квантами определенной энергии, при энергетической калибровке детекторов необходимо с высокой точностью знать эффективность регистрации гамма-квантов этой энергии детектора. Для этого необходимо провести соответствующие расчеты. Это одна из важных работ. Абсолютная и реальная эффективность детектора определяется путем измерения радионуклидов, полученных от стандартных образцов источников гамма-излучения (ОСГИ) и облучения в различных геометриях. Для определения эффективности используют абсолютные и относительные методы [1, 3].

Цели и задачи исследования. Основная цель работы – определение энергетической зависимости эффективности регистрации гамма-лучей детектора из чистого германия (HPGe).

Объект и предмет исследования. Полупроводниковые детекторы имеют высокое энергетическое разрешение (1,7 кэВ). Сегодня эти детекторы полностью автоматизированы и имеют программное обеспечение. Сцинтилляционные детекторы (NaI(Tl)) более эффективны, чем детекторы других типов, но имеют низкое энергетическое разрешение (7-8%). Однако он используется для измерения целей с низкой активностью. Одним из наиболее широко

используемых полупроводниковых детекторов является детектор сверхчистого германия. Детектор поставляется со всеми блоками, необходимыми для его работы (источник высокого напряжения, вспомогательный усилитель, цифровой анализатор, система охлаждения, контейнер Дьюара, ЭУМ и программное обеспечение). Детектор из германия высокой чистоты (HpGe) должен находиться при температуре жидкого азота только во время использования [6, 7].

Во многих исследовательских работах желательно использовать полупроводниковые детекторы. Перед проведением измерений необходимо уменьшить фоновое количество. Для этого внутри свинцовой стенки толщиной 10 см устанавливается полупроводниковый детектор из чистого германия (рис. 1). На гамма-спектрометр автоматически подается высокое напряжение. Подсчеты фона измеряются в течение примерно 10 минут. Воздействие фиксируется в памяти, на радионуклид подается высокое напряжение. С помощью усилителя регистрируется гамма-спектр необходимой энергии в нескольких каналах анализатора. Тогда усилитель вообще не трогаем. Абсолютная эффективность детектора гамма-спектра для каждой энергии определена и представлена графически [7].



Рис 1. Схема полупроводникового детектора HpGe.

Анализ и результаты. Для определения абсолютной эффективности выбирается оптимальное расстояние (в зависимости от цели эксперимента) и в этой геометрии измеряется гамма-спектр источников образцов. В табл. 1 и табл. 2 приведены характеристики источников выборки, использованных в работе.

Таблица 1.

Абсолютная эффективность детектора из чистого германия по радионуклидам ^{152}Eu, ^{60}Co и ^{137}Cs при времени измерения 600 с

№	Р.н	E, (кеВ)	I, %	t, (ст)	N	T, (ст)	A_0, (Бк)	ε
1	^{152}Eu	121,78	28,58	9122	8890	4934,25	49300	0,000397
		244,69	7,583	9122	1410	4934,25	49300	0,000397
		344,27	26,5	9122	3260	4934,25	49300	0,000397
		411,12	2,234	9122	227	4934,25	49300	0,000397
		443,96	2,821	9122	290	4934,25	49300	0,000397
		778,9	12,94	9122	589	4934,25	49300	0,000397
		867,41	4,245	9122	196	4934,25	49300	0,000397
		964,11	14,61	9122	494	4934,25	49300	0,000397
		1085,87	10,21	9122	338	4934,25	49300	0,000397
		1112,11	13,64	9122	399	4934,25	49300	0,000397
		1408,01	21,01	9122	523	4934,25	49300	0,000397
2	^{60}Co	1173,24	99,97	9122	876	1924,061	98300	0,000348
		1332,51	99,98	9122	769	1924,06	98300	0,000348
3	^{137}Cs	661,657	85,1	9122	19500	11012,0	98400	0,000689

Таблица 2.


Абсолютная эффективность детектора из чистого германия для радионуклидов ^{57}Co, ^{54}Mn и ^{109}Cd со временем измерения 300 с

№	Р.н	E, (кэВ)	I, %	t, (ст)	N	T, (ст)	A_0, (Бк)	ε
1	^{57}Co	122,06	85,6	1353	7410	271,79	249000	0,003833
2	^{57}Co	136,47	10,68	1353	971	271,79	249000	0,003833
3	^{54}Mn	834,85	99,976	1353	1930	312,3	253000	0,000512
4	^{109}Cd	88,04	3,61	1353	1630	462,6	436000	0,00262

Связь между Eγ и ε-величинами можно представить в графической форме. Связь между ними следующая (График 1). Как видно из этого графика, значение эффективности незначительно увеличивается с увеличением энергии при низких энергиях γ-квантов. Это можно объяснить следующим образом. Процесс образования γ-кванта электрон-позитронной пары при высоких энергиях происходит с большой вероятностью. Событие аннигиляции происходит, когда позитронная частица сталкивается с электронами в атоме-детекторе. Возникающие в результате аннигилирующие γ-кванты могут не потерять полную энергию в детекторе.

График 1.

Значение эффективности для γ-квантов разных энергий



Значения абсолютной эффективности при определенных энергиях определяются на основе гамма-пиков образца-источника. Интерполируя полученные значения, получают кривую абсолютного КПД в широком диапазоне энергий. При расчете необходимо учитывать эффективное время детектора, погрешности счета и определения интенсивности.Namunaviy manba gamma-piklari asosida absolyut effektivlikning ma’lum energiyalardagi qiymatlari aniqlanadi. Olingan qiymatlarni interpolyatsiyalash yordamida absolyut effektivlikning energiyaning keng diapazonidagi egri chizig‘i olinadi. Hisoblashda detektorning samarali vaqti, sanoqdagi hamda intensivlikni aniqlashdagi xatoliklarni ham hisobga olish zarur.

Таблица 3.

Относительная погрешность полученных результатов $\Delta\varepsilon/\varepsilon=((\Delta N/N)^2+(\Delta A/A)^2+(\Delta I/I)2)^{1/2}$

№	Р.н	E, (keV)	I	ΔI	N	ΔN	$(\Delta A/A)^2$	Δε/ε
1	^{60}Co	1332.61	99.9856	0.0004	769	28.28	0.0009	0.047459
2		1173.23	99.9736	0.0007	876	31.65	0.0009	0.046962
3	^{137}Cs	661.55	85.1	0.2	19500	141.68	0.0009	0.030957
4	^{152}Eu	121.73	28.58	0.06	8890	107.93	0.0009	0.032431
		244.6	7.583	0.019	1410	50.37	0.0009	0.046717
		344.1	26.5	0.4	3260	64.83	0.0009	0.03903
		411.1163	2.234	0.004	227	27.98	0.0009	0.126871

		443.965	0.327	0.019	290	25.33	0.0009	0.109111
		778.5	12.942	0.019	589	30	0.0009	0.05913
		867.378	4.245	0.019	196	22.33	0.0009	0.117897
		964.079	0.135	0.003	494	25.94	0.0009	0.064429
		1085.43	10.207	0.021	338	49.99	0.0009	0.150925
		1112.074	0.186	0.008	399	23.31	0.0009	0.078504
		1408.006	1.623	0.008	43.5	7.9	0.0009	0.184136
5	^{57}Co	122.06	85.6	0.17	7410	91.19	0.0009	0.032487
		136.47	10.68	0.08	971	34.01	0.0009	0.046722
6	^{54}Mn	834.85	99.976	0.001	1930	44.39	0.0009	0.037802
7	^{109}Cd	88.04	3.61	0.1	1630	44.43	0.0009	0.049095

Выводы и предложения. По результатам эксперимента, проведенного в детекторе из чистого германия (HPGe), были получены следующие процедуры: По гамма-пикам образца-источника определяются значения абсолютной эффективности при определенных энергиях. Интерполируя полученные значения, получают кривую абсолютного КПД в широком диапазоне энергий. При расчете необходимо учитывать эффективное время детектора, погрешности счета и определения интенсивности.

ЛИТЕРАТУРА

1. M. A. Qayumov. Dozimetr asoslari va ionlashtiruvchi nurlanishlardan himoyalanish. // Toshkent-2013
2. Khakkulov J. M., Temirov Z. S., Khalilov S. E. Electrochemical Reduction Of Macroiones As A Surface-Active Nanocoating And Nanocomposites //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 34-43. https://doi.org/10.37547/tajas/Volume03Issue06-06
3. Vasidov A. et al. Neutron activation and track analysis of the newly found bones of the southern mammoths and dinosaurs //Journal of Radioanalytical and Nuclear Chemistry. – 2016. – Т. 310. – С. 953-958. doi: http://dx.doi.org/10.1007/s10967-016-4969-0
4. Nesmiyan I. et al. Actinide isotope analysis and trace element composition of bones of prehistoric animals and humans by inductively coupled plasma mass spectrometry (ICP-MS) //Journal of Radioanalytical and Nuclear Chemistry. – 2024. – С. 1-8. http://dx.doi.org/10.1007/s10967-024-09508-4
5. Vasidov A. Akhmadshaev A. Osinskaya N.S. Saidullaev B.J. Neutron activation and track analysis of the newly found bone

relicts. // The 14th MTAA. Delft, Niderland, 23-28 August, 2015, p. 132.
6. N.R. Yo‘ldasheva, F.O. Otaxonov, B.A. Sultonov, Z.H. Shahmsimuhamadova, O.R. Tojiboyev, F.A. Rasulova, M.A. Qayumov. Yarimo‘tkazgichli detektorning absolyut effektivligini aniqlash. // Fizika fanining rivojida iste’dodli yoshlarning o‘rni (RIAK-15), 22-23 aprel. Toshkent-2022
7. N.R. Yo‘ldasheva, O.R. Tojiboyev, F.A. Rasulova, M.A. Qayumov. Toza germaniy (HPGe) detektorining absolyut effektivligini aniqlash. // Fizika fanining rivojida iste’dodli yoshlarning o‘rni (RIAK-15), 22-23 aprel. Toshkent-2023, 199-201 b.

KIBERZO‘RAVONLIKKA QARSHI KIBERXAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING MAFKURAVIY ASOSLARI VA UNING G‘OYAVIY METODOLOGIK TAHLILI

Usmonov Saidikromxo‘ja Saidalievich
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada kiberzo‘ravonlikka qarshi kiberxavfsizlikni ta’minlashning mafkuraviy asoslari va uning g‘oyaviy-metodologik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli muhitda kiberzo‘ravonlikning ijtimoiy-psixologik va mafkuraviy mexanizmlari o‘rganilib, kiberxavfsizlikni ta’minlashda mafkuraviy omillarning o‘rni asoslab beriladi. Shuningdek, shaxsning axborotga nisbatan tanqidiy munosabati va mafkuraviy immunitetini shakllantirish zarurati yoritiladi. Tadqiqot natijalari kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: kiberzo‘ravonlik, kiberxavfsizlik, mafkura, g‘oyaviy immunitet, raqamli muhit, axborot xavfsizligi, media savodxonlik, metodologiya.

ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ ПРОТИВ КИБЕРБУЛЛИНГА И ЕГО ИДЕЙНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Усмонов Сайдикромходжа Сайдалиевич
Соискатель **Национального университета Узбекистана,**
доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент

АННОТАЦИЯ:

В данной статье анализируются идеологические основы обеспечения кибербезопасности в борьбе с кибербуллингом и его идейно-методологические аспекты. Исследуются социально-психологические и идеологические механизмы кибербуллинга в цифровой среде, а также обосновывается роль идеологических факторов в обеспечении кибербезопасности. Особое внимание уделяется формированию критического мышления и идеологического иммунитета личности. Результаты

исследования включают научно-методические рекомендации по развитию культуры кибербезопасности.

Ключевые слова: кибербуллинг, кибербезопасность, идеология, информационная среда, медиаграмотность, методология, цифровая культура, информационная безопасность

IDEOLOGICAL FOUNDATIONS OF ENSURING CYBERSECURITY AGAINST CYBERBULLYING AND ITS IDEOLOGICAL-METHODOLOGICAL ANALYSIS

Usmonov Saidikromkhodja Saidalievich
Independent researcher of the National University of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy, dosent

ABSTRACT:

This article analyzes the ideological foundations of ensuring cybersecurity against cyberbullying and its ideological-methodological aspects. The study examines the socio-psychological and ideological mechanisms of cyberbullying in the digital environment and substantiates the role of ideological factors in ensuring cybersecurity. Particular attention is given to the formation of critical thinking and ideological immunity of individuals. The results of the study include scientific and methodological recommendations aimed at developing a cybersecurity culture.

Keywords: cyberbullying, cybersecurity, ideology, digital environment, media literacy, methodology, information security, digital culture

Zamonaviy axborot jamiyatida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Shu jarayonda kiberzo‘ravonlik fenomeni global miqyosda dolzarb muammolardan biriga aylandi. Kiberzo‘ravonlik internet va raqamli platformalar orqali shaxsga psixologik, ijtimoiy yoki axloqiy zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuini ifodalaydi. Bu hodisa nafaqat individual darajada, balki jamiyatning axborot xavfsizligi va ijtimoiy barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli muhitning kengayishi bilan birga kiberxavfsizlikni ta’minlash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimlarining tezlashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi va raqamli kommunikatsiya vositalarining keng qo‘llanilishi sharoitida foydalanuvchilarni turli tahdidlardan himoya qilish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, kiberxavfsizlik nafaqat texnik himoya vositalari, balki ijtimoiy, psixologik va mafkuraviy

omillarni ham o‘z ichiga olgan kompleks tizim sifatida qaralmoqda.

Hozirgi kunda kiberxavfsizlik va mafkuraviy ta’sir o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yetarli darajada o‘rganilmagan. Raqamli muhitda tarqalayotgan axborot oqimlari shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa kiberzo‘ravonlikning nafaqat texnik, balki g‘oyaviy va mafkuraviy jihatlarini ham tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu tadqiqotda kiberzo‘ravonlikka qarshi kiberxavfsizlikni ta’minlashning mafkuraviy asoslarini o‘rganishda kompleks ilmiy metodlar tizimi qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va axborot xavfsizligi yondashuvlarining integratsiyasiga tayangan.

Tadqiqotda g‘oyaviy-metodologik tahlil asosiy usullardan biri sifatida qo‘llanildi. Ushbu yondashuv shaxsning axborot muhitidagi xulq-atvori va kiberzo‘ravonlikka munosabatini mafkuraviy omillar bilan bog‘liq holda o‘rganishga imkon berdi. A. G. Asmolovning ijtimoiy psixologik yondashuvlariga ko‘ra, shaxsning axborot muhitidagi faoliyati uning qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog‘liqdir[1].

Kontent-tahlil usuli orqali internet tarmoqlari, ilmiy maqolalar va statistik hisobotlar tahlil qilindi. Bu jarayonda kiberzo‘ravonlikning asosiy shakllari, tarqalish dinamikasi va raqamli platformalardagi ifodalanish xususiyatlari o‘rganildi. P. Krippendorff kontent-tahlilni “matn orqali ijtimoiy haqiqatni aniqlash usuli” sifatida izohlaydi[2].

Qiyosiy tahlil asosida O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda kiberxavfsizlikni ta’minlash tajribalari o‘rganildi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining “Cybersecurity Strategy” konsepsiyasi va AQShning “Cyber Awareness Framework” modeli tahlil qilindi. Castellsning “axborot jamiyati” nazariyasi bu jarayonda metodologik asos bo‘lib xizmat qildi[3].

Tizimli yondashuv kiberxavfsizlikni texnik, ijtimoiy va mafkuraviy komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi. L. Bertalanffy umumiy tizimlar nazariyasiga ko‘ra, har qanday ijtimoiy tizim elementlari o‘zaro bog‘liq va bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi[4].

Talabalar va foydalanuvchilarning raqamli muhitdagi xulq-atvori sotsiologik kuzatuvlar orqali o‘rganildi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv asosida kiberxavfsizlik madaniyatining shakllanish darajasi tahlil qilindi. Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish

[1] Asmolov A.G. *Psixologiya lichnosti*. – Moskva: Smysl, 2010

[2] 2. Krippendorff K. Content Analysis: An Introduction to Its Methodology. – Sage Publications, 2018.

[3] 3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Blackwell, 2010.

[4] 4. Bertalanffy L. General System Theory. – New York, 1968.

nazariyasi bu jarayonda shaxsning ijtimoiy muhit orqali shakllanishini asoslab beradi[5].

Abstraksiya va umumlashtirish orqali kiberzo‘ravonlikning mafkuraviy mohiyati ajratib olindi hamda umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi. Ushbu usul murakkab axborot oqimlaridan nazariy model yaratishga imkon berdi.

Menimcha, kiberzo‘ravonlik muammosini faqat texnik xavfsizlik vositalari bilan cheklash yetarli emas. U, avvalo, insonning axborotni qabul qilish madaniyati va mafkuraviy immuniteti bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun kiberxavfsizlik tizimi ta’lim, tarbiya va g‘oyaviy immunitetni shakllantirish bilan integratsiyalashgan holda rivojlanishi kerak. Ayniqsa, yoshlar orasida tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va raqamli madaniyatni shakllantirish kiberzo‘ravonlikning oldini olishda eng muhim omillardan biridir.

Tadqiqot davomida kiberzo‘ravonlikka qarshi kiberxavfsizlikni ta’minlashning mafkuraviy asoslarini o‘rganish natijasida quyidagi ilmiy natijalar olindi:

Tahlillar kiberzo‘ravonlik faqat texnik yoki ijtimoiy hodisa emas, balki uning asosida shaxsning psixologik holati, ijtimoiy stereotiplari va mafkuraviy ta’sirga moyilligi yotishini ko‘rsatdi. Kiberzo‘ravonlik ko‘pincha anonimlik, ijtimoiy mas’uliyatsizlik va guruhiy bosim sharoitida kuchayishi aniqlandi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kiberxavfsizlik faqat texnik himoya vositalari bilan cheklanmaydi. Shaxsning axborotga munosabati, uning qadriyatlar tizimi va tanqidiy fikrlash darajasi xavfsizlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijasida raqamli muhitda g‘oyaviy ta’sirning asosiy kanallari aniqlanib, ular ijtimoiy tarmoqlar, blog platformalar, messenjerlar va video kontent tizimlari sifatida tasniflandi. Har bir kanalning psixologik va mafkuraviy ta’sir darajasi turlicha ekani aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning integrativ modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda bilim, ko‘nikma, qadriyat va xulq-atvor komponentlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ifodalandi hamda ta’lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari belgilandi.

Tadqiqot natijasida shaxsning mafkuraviy immunitetini shakllantiruvchi asosiy omillar tizimlashtirildi. Ular qatoriga tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati, media savodxonlik, ijtimoiy faollik va refleksiv tafakkur kirishi aniqlandi. Ushbu omillar kiberzo‘ravonlikka qarshi barqaror psixologik himoya mexanizmini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari kiberzo‘ravonlik va kiberxavfsizlik muammolariga doir mavjud ilmiy qarashlar bilan qisman mos keladi. Xususan, axborot xavfsizligini ta’minlashda texnik va huquqiy yondashuvlarning muhimligi

[5] Vygotsky L.S. *Mind in Society*. – Harvard University Press, 1978

ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Biroq ushbu ishda ilgari surilgan asosiy farq shundan iboratki, kiberxavfsizlik mafkuraviy omillar va shaxsning g‘oyaviy immuniteti bilan bevosita bog‘liq yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kiberxavfsizlikni faqat texnologik vositalar orqali ta’minlash yetarli emas. Mafkuraviy yondashuv shaxsning axborotni qabul qilish, tahlil qilish va baholash qobiliyatini shakllantiradi. Shu sababli, mafkuraviy immunitet kiberxavfsizlikning barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kiberzo‘ravonlikka qarshi kurashda asosiy metodologik muammolar qatoriga hodisaning ko‘p qatlamliligi, anonimlik omili va raqamli muhitning tez o‘zgaruvchanligi kiradi. Bu esa yagona universal yondashuvni ishlab chiqishni murakkablashtiradi hamda kompleks metodologik tizim zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari ta’lim tizimida kiberxavfsizlik madaniyati va mafkuraviy tarbiyani uzviy integratsiya qilish zarurligini asoslab berdi. Talabalarda media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborotga ongli yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirish kiberzo‘ravonlikning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Amaliy jihatdan, raqamli madaniyatni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhimligi aniqlandi: media ta’lim dasturlarini kengaytirish, kiberxavfsizlik bo‘yicha treninglar tashkil etish, ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy me’yorlarni targ‘ib qilish hamda yoshlar orasida axborot immunitetini shakllantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etish.

Kelgusidagi tadqiqotlar kiberzo‘ravonlikning sun’iy intellekt va algoritmik platformalar bilan bog‘liq yangi shakllarini o‘rganishga, shuningdek, raqamli muhitda shaxsning psixologik barqarorligini oshiruvchi innovatsion metodlarni ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Tadqiqot natijalari kiberzo‘ravonlikka qarshi kiberxavfsizlikni ta’minlash jarayoni faqat texnik yoki huquqiy choralar bilan cheklanmasdan, balki kuchli mafkuraviy va g‘oyaviy-metodologik asoslarni ham talab etishini ko‘rsatdi. Kiberzo‘ravonlik zamonaviy raqamli jamiyatda murakkab ijtimoiy-psixologik va mafkuraviy hodisa sifatida namoyon bo‘lib, uning oldini olishda shaxsning axborotga nisbatan tanqidiy munosabati va mafkuraviy immuniteti muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish ta’lim tizimi, ijtimoiy institutlar va raqamli platformalar integratsiyasi asosida amalga oshirilishi zarurligi asoslab berildi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan yondashuvlar kiberzo‘ravonlikning oldini olishda kompleks (texnik + ijtimoiy + mafkuraviy) tizim zarurligini tasdiqladi.

Umuman olganda, kiberxavfsizlikni ta’minlashning mafkuraviy asoslarini kuchaytirish jamiyatning raqamli barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

ta’lim muassasalarida “Kiberxavfsizlik madaniyati” maxsus kurslarini joriy etish;

talabalarda media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlardan foydalanish;

raqamli etikani o‘rgatuvchi amaliy mashg‘ulotlar tizimini kengaytirish.

yoshlar orasida axborot immunitetini shakllantirish bo‘yicha targ‘ibot dasturlarini kuchaytirish;

ijtimoiy tarmoqlarda zararli kontentga qarshi profilaktik g‘oyaviy ishlarni yo‘lga qo‘yish;

oila–ta’lim muassasasi–jamiyat hamkorligini mustahkamlash.

kiberzo‘ravonlik holatlarini aniqlash uchun monitoring tizimlarini rivojlantirish;

sun’iy intellekt asosida zararli kontentni erta aniqlash algoritmlarini joriy etish;

raqamli platformalarda foydalanuvchi xavfsizligini kuchaytiruvchi siyosatlarni ishlab chiqish.

kiberzo‘ravonlikning psixologik va mafkuraviy mexanizmlarini chuqur o‘rganish;

raqamli muhitda g‘oyaviy ta’sirning yangi shakllarini tahlil qilish;

kiberxavfsizlik va mafkuraviy immunitet o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha yangi modellar ishlab chiqish.

REFERENCES

1. Castells M. *The Rise of the Network Society*. Blackwell Publishing, 2010.
2. Krippendorff K. *Content Analysis: An Introduction to Its Methodology*. Sage Publications, 2018.
3. Bertalanffy L. *General System Theory*. New York, 1968.
4. Vygotsky L.S. *Mind in Society*. Harvard University Press, 1978.
5. Asmolov A.G. *Psikhologiya lichnosti*. Moskva: Smysl, 2010.
6. OECD. *Digital Security Risk Management for Economic and Social Prosperity*. Paris, 2015.
7. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). *Cybersecurity Strategy Reports*, 2022–2024.
8. UNODC. *Cybercrime and Online Safety Reports*. United Nations Publications, 2023.

9. Nye J. *Cyber Power*. Harvard Kennedy School, 2017.
10. Shaxsiy ilmiy ishlanmalar va dala kuzatuvlari natijalari (muallif materiali).

HOZIRGI O‘ZBEK NASRIDA JANRLAR SINKRETIZMI VA UNING BADIIY IFODASI (ISAJON SULTONNING “BOQIY DARBADAR” ROMANI MISOLIDA)

Tajibaeva Dilfuza Erkinovna
Namangan davlat universiteti dotsenti,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek nasridagi janrlar sinkretizmi hodisasi Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romani misolida tadqiq etilgan. Asar tuzilishida turli adabiy janrlar va badiiy vositalarning o‘zaro uyg‘unlashuv jarayonlari tahlil qilingan. Xususan, epik bayon, mifologik va rivoyat elementlari, falsafiy esseizm, diniy-mistik talqin, publitsistik hamda ilmiy-fantastik diskurs sinteziga alohida e’tibor qaratilgan.

Maqolada janrlar sinkretizmi zamonaviy romanning badiiy-ma’noviy tuzilishini boyitishi va postmodernistik adabiyotning global tendensiyalarini aks ettirishi ta’kidlanadi. Roman zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi sinkretik tafakkurning yorqin namunasi sifatida baholanib, uning ko‘pqatlamli kompozitsiyasi, universal falsafiy g‘oyalari va novatorona badiiy ifodasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: janrlar sinkretizmi, zamonaviy o‘zbek nasri, roman poetikasi, mifologik tafakkur, falsafiy nasr, postmodernistik adabiyot, badiiy ifoda, adabiy sintez.

GENRE SYNCRETISM IN CONTEMPORARY UZBEK PROSE AND ITS ARTISTIC EXPRESSION (ON THE EXAMPLE OF ISAJON SULTAN’S NOVEL “ETERNAL WANDERER”)

Tajibaeva Dilfuza Erkinovna
Associate Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

ANNOTATION

This article examines the phenomenon of genre syncretism in contemporary Uzbek prose through the example of Isajon Sultan’s novel “Eternal Wanderer” (“Boqiy darbadar”). The study analyzes the synthesis of various literary genres and artistic methods within the structure of the novel. In particular, the interaction of epic narration, mythological

and legendary elements, philosophical essayism, religious-mystical interpretation, journalistic discourse, and science-fiction features is explored.

The article argues that genre syncretism enriches the artistic and semantic layers of modern prose and reflects the global tendencies of postmodern literature. The novel is evaluated as a vivid example of syncretic thinking in contemporary Uzbek literature, distinguished by its multilayered composition, universal philosophical ideas, and innovative artistic expression.

Keywords: genre syncretism, contemporary Uzbek prose, novel poetics, mythological thinking, philosophical prose, postmodern literature, artistic expression, literary synthesis.

ЖАНРОВЫЙ СИНКРЕТИЗМ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ И ЕГО ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА ИСАЖОНА СУЛТАНА «ВЕЧНЫЙ СКИТАЛЕЦ»)

Тажибаева Дилфуза Эркиновна
доцент Наманганский государственный университет,
доктор философии по филологическим наукам (PhD)

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется явление жанрового синкретизма в современной узбекской прозе на примере романа Исажона Султана «Вечный скиталец» («Боқий дарбадар»). Анализируются процессы взаимодействия различных литературных жанров и художественных средств в структуре произведения. Особое внимание уделяется синтезу эпического повествования, мифологических и легендарных элементов, философского эссеизма, религиозно-мистической интерпретatsii, публицистического и научно-фантастического дискурсов.

В статье подчёркивается, что жанровый синкретизм способствует углублению художественно-смысловой структуры современного романа и отражает глобальные тенденции постмодернистской литературы. Роман рассматривается как яркий образец синкретического мышления в современной узбекской литературе, отличающийся многослойной композицией, универсальными философскими идеями и новаторским художественным выражением.

Ключевые слова: жанровый синкретизм, современная узбекская проза, поэтика романа, мифологическое мышление,

философская проза, постмодернистская литература, художественное выражение, литературный синтез.

Kirish

Hozirgi adabiy jarayonda yuz berayotgan muhim xususiyatlardan biri janrlar sinkretizmining keng qo‘llanilishi va badiiy ijodda faol namoyon bo‘lishidir. Janrlar sinkretizmi deganda, bir badiiy asar doirasida turli janr elementlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi, bir-biriga singib ketishi va natijada yangi badiiy shakl hosil bo‘lishi tushuniladi. Bu hodisa zamonaviy nasrning muhim belgilaridan biri sifatida qaraladi.

An’anaviy ravishda janrlar epik, lirik va dramatik turlarga bo‘linadi. Biroq zamonaviy adabiyotda bu chegaralar asta-sekin yo‘qolib, janrlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchayib bormoqda. Bu esa janrlar sinkretizmining shakllanishiga olib kelmoqda.

Janrlar sinkretizmi, ayniqsa, nasr janrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki nasr o‘z tabiatiga ko‘ra keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, u turli janr elementlarini o‘z ichiga olish qobiliyatiga ega. Hozirgi o‘zbek nasrida roman, qissa va hikoya kabi janrlar doirasida lirik, dramatik, publitsistik va hatto esse elementlari uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili:

Sinkretizm (yun. synkretismos – birlashish, qo‘shilish) tushunchasi turli madaniy va diniy elementlarning aralashuvini anglatadi. [4.] Keyinchalik esa u san’at va adabiyot nazariyasida keng qo‘llanila boshladi. Adabiyotshunoslikda sinkretizm, asosan, badiiy matnda turli janr, uslub, obraz va ma’no qatlamlarining uyg‘unlashuvini anglatuvchi nazariy kategoriya sifatida shakllandi.

Nasrdagi sinkretizm va uning ifodasi muammosi jahon adabiyotshunosligida atroflicha o‘rganilgan. Bu jihatdan Arastu, G.N.Pospelov, V.E.Xalizev, A. Veselovskiy, O.Freydenberg, G.Plexanov I. Shirova, V. Tyupa [1,7,9,10, 12,13,15.] kabi olimlarning fundamental tadqiqotlari ahamiyatli hisoblanadi. O‘zbek adabiyotshunosligida aynan sinkretizm masalasi alohida monorgafik tadqiqot shaklida emas, balki adabiyot nazariyasiga oid, metodologiyaga doir kitoblarda, ilmiy maqolalar tarkibida, dissertatsiya va avtoreferatlar tarkibida mavjud bo‘lib, jumladan, Fitrat, I.Sulton, S.Mamajonov, U.Normatov, H.Boltaboev [2,3, 8,11.] va boshqa olimlarning ishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi:

Maqolada mavzuni yoritishda qiyosiy-tahliliy va tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar:

Hozirgi o‘zbek nasri taraqqiyotida janrlar sinkretizmi muhim badiiy-estetik tamoyillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Sinkretizm turli janr va uslublarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, bir asar doirasida bir nechta janr xususiyatlarining qo‘shilib ketishidir. “Badiiy matnda sinkretizm turli ifoda shakllari va sathlarining organik uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.” [15.] Bu jarayon adabiyotning yangilanishi, inson ruhiyatini murakkab va ko‘p qirrali tarzda ifoda etish ehtiyoji bilan bog‘liq.

Hozirgi o‘zbek nasrida roman, qissa, hikoya kabi an’anaviy janrlar ichida esse, publitsistika, falsafiy mushohada, hatto dramatik elementlarning uyg‘unlashib ketganini kuzatish mumkin.

Hozirgi o‘zbek nasrida janrlar sinkretizmi turli badiiy shakllar, uslublar va ifoda vositalarining bir asar doirasida uyg‘unlashuvi adabiy jarayonning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, Isajon Sulton ijodida yaqqol namoyon bo‘lib, uning “Boqiy darbadar” romani sinkretik nasrning yorqin namunasi sifatida e’tiborga loyiqdir. “Boqiy darbadar” romanida tarixiy, falsafiy va mifologik qatlamlar birlashib, roman janrining an’anaviy chegaralarini kengaytiradi. Asarda real voqelik bilan xayol, afsona va ramz uyg‘unlashib, ko‘p qatlamli ma’no yuzaga keladi.

“Boqiy darbadar” asari tashqi jihatdan roman sifatida shakllangan bo‘lsa-da, uning ichki tuzilishida bir nechta janr qatlamlari uyg‘unlashgan. Asarda epik bayon, rivoyat va afsonaviy qatlam, falsafiy esse elementlari, diniy-mistik talqinlar, publitsistik va zamonaviy ilmiy fikrlar birlashib ketgan. Roman boshlanishidayoq tarixiy-mifologik ruh seziladi. Sahro, “Muborak kishi”, “O‘lim lashkari” [5.] kabi obrazlar orqali asar reallikdan ko‘ra ramziy-falsafiy maydonga ko‘chadi . Bu esa uni an’anaviy realistik roman emas, balki sinkretik asar ekanini ko‘rsatadi.

Asarda janrlar sinkretizmining asosiy ko‘rinishlaridan biri rivoyat bilan roman shaklining uyg‘unlashuvidir. Etikdo‘z qismati, uning “abadiy darbadarlik”ka mahkum qilinishi voqeasi rivoyat xususiyatiga ega. Masalan, Muborak Kishining la’nati: “...sen to qiyomatga qadar er yuzida betinim daydishga mahkum etilding...” Bu motiv jahon adabiyotidagi “abadiy sayohatchi” [5.] arxetipini eslatadi. Shu orqali muallif milliy nasrni umuminsoniy mifologik tafakkur bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, qora chumchuqlar, bashorat, taqdir kabi detallar ham mifologik-ramziy mazmun kasb etadi. “Samum odami degan afsonaviy odam aslida o‘sha – duoibad etilgan va oxiri ko‘rinmaydigan izdihomning bu dunyoga kelib ketishiga to qiyomatga qadar guvoh bo‘lishga (va o‘zi ham ketishni orzu qilishga) mahkum etikdo‘z ekani haqida rivoyatlar bor. Aslida samum – Sahroi Kabirda esadigan va jon zoti borki, barini kuydirib-eritib halok qiladigan qaynoq shamol, biroq, aynan shu shamollar orasidan chiqib kelgani uchun ham arab badaviylari uni samum odami deb ataganlar.” [5.] Bu fikr nasr, rivoyat va folklor elementlarining sintezini ta’minlaydi. Romanda faqat syujet emas,

balki murakkab falsafiy mushohadalar ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, badaviylar bilan muloqot, avliyo bilan suhbat kabi epizodlar esse janriga yaqinlashadi. Masalan, inson taqdiri haqidagi fikr: “Qanchalar uzoq umr berilsa-da, bu olamdagi hamma narsa kun kelib sovurilib ketishining tirik guvohi bo‘lish...” [5.] Bu erda syujet to‘xtaydi va muallif falsafiy xulosaga o‘tadi. Bu “roman + falsafiy esse” sinkretizmining aniq namunasidir, deyishimizga asos bo‘ladi. Asarda diniy obrazlar va mistik tushunchalar keng qo‘llanilgan. Bu holat romanni diniy-falsafiy nasrga yaqinlashtiradi. Avliyo bilan muloqot epizodida muallif mo‘jiza va tabiat qonuniyatlari haqida chuqur fikr yuritadi. Bu erda diniy tafakkur, falsafiy tahlil, badiiy tasvir birlashadi. Bu sinkretizm orqali asar faqat badiiy emas, balki ma’rifiy va ruhiy mazmun kasb etadi.

Romanning ikkinchi qismida keskin janr o‘zgarishi kuzatiladi. Samolyot, genetika, sun’iy inson yaratish haqidagi tasvirlar kiritiladi.Bu erda asar ilmiy-fantastik, publitsistik, analitik nasr xususiyatlarini oladi. Masalan, genetik tajribalar orqali “abadiy inson” yaratish g‘oyasi asarning boshidagi “abadiy la’nat” motivi bilan parallel qo‘yiladi. Bu esa mif + zamonaviy fan + falsafa sintezini yaratadi.

Asarda vaqt chiziqli emas. Qadimiy sahro voqealari, o‘rta asrlar, zamonaviy sivilizatsiya bir asarda birlashadi. Sahro (mifologik vaqt), badaviylar (tarixiy vaqt), samolyot va genetika (zamonaviy vaqt) bir vaqtning o‘zida mavjud. Bu holat postmodern nasrga xos bo‘lib, janr sinkretizmini yanada kuchaytiradi.

Asarda bir nechta ifoda usullari uyg‘unlashgan. Masalan, ramzlar sifatida qora chumchuqlar, shamol, sahro, ichki monolog etikdo‘z fikrlari, dialog avliyo va mehmon suhbati, lirik tasvir tabiat manzaralari orqali ifodalanadi.. Bu esa asarni ko‘pqatlamli va ta’sirchan qiladi.

Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romani hozirgi o‘zbek nasrida janrlar sinkretizmining yorqin namunasi bo‘lish bilan birga, umumjahon adabiy jarayoni nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, mazkur asarda ifodalangan badiiy tafakkur, qo‘llanilgan uslubiy vositalar va ko‘tarilgan g‘oyaviy muammolar milliy adabiyot chegarasidan chiqib, global adabiy tendensiyalar bilan uyg‘unlik kasb etadi.

Asarda ko‘tarilgan g‘oya va muammolarning universal xarakteri e’tiborga molikdir. “Boqiy darbadar” romanida inson taqdiri, gunoh va jazo, abadiylik, ma’naviy izlanish kabi falsafiy masalalar markaziy o‘rin egallaydi. Bu mavzular muayyan milliy muhit bilan cheklanib qolmasdan, butun insoniyat tafakkuriga xos umuminsoniy qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, etikdo‘z obrazi orqali ifodalangan abadiy darbadarlik motivi insonning axloqiy tanlovi va uning oqibatlari haqidagi keng qamrovli falsafiy xulosalarni

yuzaga chiqaradi . Bu esa asarni jahon adabiyotidagi “abadiy sayohatchi” arxetipi bilan mazmunan yaqinlashtiradi.

Romanning janriy tabiati sinkretik xususiyatga ega bo‘lib, u zamonaviy jahon adabiyotida kuzatilayotgan postmodern tendensiyalar bilan hamohangdir. Asarda roman, rivoyat, falsafiy esse, diniy-mistik bayon va ilmiy-fantastik tasvir elementlari o‘zaro uyg‘unlashgan. Bu holat adabiy shaklning erkinlashuvi, janr chegaralarining nisbiylashuvi va ko‘pqatlamli badiiy tuzilmaning shakllanishi kabi global adabiy jarayonlarning o‘zbek nasridagi ifodasi sifatida baholanishi mumkin.

“Boqiy darbadar”asarida mifologik tafakkur bilan zamonaviy ilmiy dunyoqarashning sintezi kuzatiladi. Qadimiy rivoyat va diniy obrazlar bilan bir qatorda genetika, sun’iy inson yaratish kabi zamonaviy ilmiy g‘oyalarning kiritilishi badiiy matnda vaqt va makon doirasini kengaytiradi . Bu esa an’ana va modern, mif va texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi va asarni universal intellektual maydonga olib chiqadi.

Asarda vaqt va makon kategoriyalarining sinkretik talqini namoyon bo‘ladi. Roman kompozitsiyasida tarixiy o‘tmish, mifologik tasavvurlar va zamonaviy sivilizatsiya manzaralari bir butun badiiy makonda uyg‘unlashadi. Bu esa chiziqli vaqt konsepsiyasidan voz kechish va ko‘pqatlamli vaqt modeliga o‘tish kabi postmodern estetikaning muhim belgilaridan biridir.

Nihoyat, asarning falsafiy-intellektual mazmuni ham uni jahon adabiyoti kontekstida baholash imkonini beradi. Muallif insonning mavjudlik mohiyati, abadiylik va fan taraqqiyoti o‘rtasidagi ziddiyat, ma’no va bema’nilik muammolarini badiiy tahlil etadi. Bu esa asarni nafaqat badiiy, balki falsafiy-analitik nasr namunasi sifatida ham tavsiflash imkonini yaratadi.

“Boqiy darbadar” romanidagi janrlar sinkretizmi, universal g‘oyalar va ko‘pqatlamli badiiy ifoda usullari uni hozirgi o‘zbek nasrining yutug‘i sifatidagina emas, balki umumjahon adabiyotidagi sinkretik tafakkur namunalaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o‘zbek nasrida janrlar sinkretizmi adabiyotning mazmun va shakl jihatidan boyishini ta’minlamoqda. U turli janr elementlarini uyg‘unlashtirish orqali inson ruhiyati, jamiyat muammolari va zamon ruhini chuqur va ta’sirchan tarzda ifoda etish imkonini beradi. Bu esa o‘zbek nasrining jahon adabiyoti bilan hamohang rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika / Rus tilidan M. Mahmudov tarjimasi. – T.: Yangi asr avlodi.

2. Boltaboev H. Nasr va uslub. – T.: Fan, 1992.
3. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. – T., 2005.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2004.
5. Sulton Isajon. Boqiy darbadar. – www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. Анализ художественного текста. – Москва: Академия, 2001.
7. Веселовский А. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989.
8. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
9. Плеханов Г. Искусство и общественная жизнь. – Москва: Искусство, 1958.
10. Поспелов Г.Н. Вопросы методологии и поэтики. – М.: Изд-во МГУ, 1983.
11. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
12. Фрейденберг О. Миф и литература древности. – Москва: Наука, 1978.
13. Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2006.
14. Храпченко М.Б. Горизонты художественного образа. – М.: Художественная литература, 1986.
15. Щирова И. Синкретизм художественного текста как целостной системы. – Санкт-Петербург: РГПУ им. Герцена, 2005.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA DUNYOVIY VA DINIY QADRIYATLARDA SHAXS ERKINLIGI MUAMMOLARI

Elmurotov Jamshid Shodiyorovich
Toshkent Kimyo halqaro universiteti dotsenti, PhD
Jumayev To'lqin Xolmurodovich
Toshkent Kimyo halqaro universiteti dotsenti, PhD

REZYUME

Maqolada diniy qadriyatlar hamda ularning shaxs erkinligida tutgan o'rni, dinning jamiyatda tutgan o'rni va asosiy vazifalari xususida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В стате рассматриваются религиозные сенности и их место в свободе личности, роль и место религии в общэстве.

SUMMARY

Summary: The article discusses religious values and their place in individual freedom, the role and place of religion in society.

Kalit so'zlar: erkinlik, diniy, milliy, qadriyat, e'tiqod, fikr erkinligi, shaxs erkinligi, vorislik, Zardo'sht, Budda ta'limoti, kompensatorlik, integrativlik, regulyativlik, legitimlovchilik, mafkura, urf-odat.

Keywords: freedom, religion, nationality, values, beliefs, freedom of thought, freedom of personality, inheritance, Zoroastrianism, Buddha teaching, compensation, integration, regulating, legitimacy, ideology, traditions.

Har qanday xalqning, millatning hech narsaga almashib bo'lmaydigan eng muqaddas va qimmatbaho, yuksak qadriyati uning erkinligidir. Erkinlik millatning o'lmas qadriyatlari bilan shakllangan bo'lib, u o'zining qamrovida diniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Eng avvalo, bunda dunyoviy va diniy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati juda yuqori tarzda anglanib, unda diniy e'tiqod, diniy erkinlik omillari o'zaro bir-biri bilan mutanosiblikda muvozanatda bo'ladi. Ya'ni, dunyoviy va diniy qadriyatlarda insonning yaratilishi, yashashdan maqsadi, hayotining mazmuni, e'tiqodi, erkinligi, fikr erkinligi tarixiy shakllanishi va jamiyatdagi amaliy faoliyati, insonparvarlik tamoyillarining mazmun-mohiyati o'z ifodasini topgan.

Bu haqda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni

safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.”[1] Bu g‘oyat teran chuqur va ilmiy ta’rifdan qadriyat — deyilganda, biz ma’lum millat va xalq uchun muqaddas bo‘lgan, uning butun bir shakllanish tarixini, o‘tmishini o‘zida qamrab olgan va kelajakdagi istiqbolini belgilab beruvchi ma’naviy tizimni tushunamiz. Qadriyatlarning tarixiy shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiyoti o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lmaydi, balki u, kishilik jamiyati tarixining moddiy va ma’naviy qirralarini to‘laligicha o‘zida mujassam aylagan holda keksa avlod tomonidan yosh avlodga in’om etiladigan vorislikdir. Demak, barcha mas’uliyat vorislikni qabul qilib oluvchi yosh avlod zimmasiga yuklatiladi. Ya’ni, vorislikni qanday qabul qilib olgan bo‘lsa, uni shundayligicha emas, balki undan oqilona foydalanib, uning yo‘qolib ketayotgan qirralarini saqlab qolib, ochilmagan jihatlarini ochib berib yana bir qancha yangiliklar qo‘shgan holda topshirish majburiyati yuklatiladi. E’tibor qiladigan bo‘lsak, bu yerda falsafiy fanlar qonunlarida mujassam bo‘lgan, inkorni inkor qonuni va vorisiylik tamoyili amal qilishini kuzatishimiz mumkin. Albatta, bugungi kunda barkamol avlodni ma’naviy va axloqiy jihatdan yuksak darajada tarbiyalash jarayonida ularni dunyoviy va diniy qadriyatlardan uzluksiz boxabar qilib borish, ayni damda anglab olingan dolzarb vazifalardan biridir. Shu mazmunda, qadriyatlarning millat uchun ezgu va muqaddas bo‘lgan qirralaridan biri diniy qadriyat bo‘lib, u millat va xalqning qalbida, tafakkurida tez so‘nmasligi oqibatida qadrlidir. Dunyoviy va diniy qadriyatlarda shaxsning e’tiqod erkinligi, diniy qadriyatlar tizginida uning olib borayotgan amaliy faoliyati, muammolari hamda yechimlari masalaning asosini tashkil qiladi.

Jumladan, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari tarixida shaxs erkinligi, e’tiqod erkinligi g‘oyalari Zardo‘sht va Budda ta’limoti, Mazdak ijtimoiy-siyosiy faoliyati ta’sirida shakllangan. Tarixda Forobiy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Yusuf Xos Xojib, Ibn Rushd, Nizomulmulk kabi mutafakkirlarimiz ijodlarida bunyodkor g‘oyalarning yuksak qirralari keng rivojlantirilgan. Shu sababdan diniy qadriyatlarda shaxs erkinligi va e’tiqod erkinligi muammolarini o‘rganish jarayonida ular ta’limotining o‘ziga xos tomonlarini kengroq bayon qilish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, bunyodkor g‘oyalarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi har bir tarixiy taraqqiyotda, ma’naviy hayotda, dinga bo‘lgan munosabatni

[1] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. -Toshkent: “Ma’naviyat”, -4-bet.

aniqlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Binobarin, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida shaxs erkinligini ilmiy o‘rganish natijasida har bir bosqichiga obyektiv yondashgan holda to‘g‘ri xulosalar chiqarish, uning tajribasi, ijobiy jihatlaridan foydalanish shu kunning muhim masalalaridan biridir. E’tibor qiladigan bo‘lsak, yangi davr falsafasida fransuz faylasufi R. Dekartdan boshlab shaxs erkinligi haqida dualistik g‘oya shakllanishiga yo‘l ochildi. Bunda birinchi o‘ringa o‘z-o‘zini anglash “Men” tushunchasi bilan birlashtirib yuborildi. Nemis faylasufi I.Kant fikricha, shaxs erkinligi o‘z-o‘zini anglashi orqali shakllanadi, bu holat unga hayvonlar olamidan farqlab, o‘zining “Men” ini axloqiy qoidalarga bo‘ysundirish imkoniyatini beradi.[1] Shu jihatdan ham inson omili va u yaratgan ezgu qadriyatlar uning ibtidosidan to hozirga qadar o‘zining yuksakligi, ulug‘ligi bilan borliqda o‘z o‘rniga ega. Chunonchi, uning bu faoliyati Kant aytganidek, o‘z-o‘zini anglash orqali yuzaga keladi.

Hozirgi zamon falsafa va ijtimoiy-gumanitar fanlarida shaxs erkinligi tushunchasiga bir necha talqin berilgan. Biz ushbu talqinlardan biriga qo‘shilgan holda o‘z ta’rifimizni ishlab chiqishga harakat qildik. Ya’ni, shaxs erkinligi deb muayyan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sharoitlariga bog‘liq bo‘lgan, individual holatda intelektual va irodaviy sifatlarga ega bo‘lgan inson faoliyatiga aytiladi. Tarixan turli diniy-falsafiy tizimlar shaxs erkinligini o‘rganishga yoki ilmiy talqin qilishda o‘zlaricha yondashganlar. Agar antik davr falsafasida shaxs erkinligiga nisbatan, asosan, erkin munosabatlar, deb qaralgan bo‘lsa, xristianlik ta’limotida shaxs va uning erkinligini maxsus mohiyat, “Individual substansiya”, aqliy xususiyat, nomoddiy ruhning sinonimi deb tushunilgan.

